

Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) turizm statistikasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va xorijga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni to'g'risidagi, hamda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish tartibini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Turizm statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning bir tarmog'i bo'lib, bu turizm sohasida sodir bo'layotgan miqdor va sifat jihatdan hodisa hamda jarayonlarni o'rganadigan soha.

Maqsadi va vazifalari. Turizm statistikasining asosiy vazifasi bu turizm sohasining rivojlanishini raqamlarda aks ettirilishi hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini foydalanuvchilarga o'z vaqtida taqdim etishdan iboratdir.

2-bob. Asosiy tushunchalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to'rt soatdan o'n ikki oygacha bo'lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan, yoki kamida ma'lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

sayyohlik safari – tashrif buyuruvchi tomonidan amalga oshiriladigan safar hisoblanadi;

sayyohlik tashrifi – sayyohlik safari davomida tashrif buyuruvchi tomonidan tashrif buyurilgan joyda bo‘lish hisoblanadi;

sayohatchi – turli geografik joylar oralig‘ida har qanday maqsadda va har qanaqa muddat davomida harakatlanayotgan shaxs hisoblanadi;

tashrif buyuruvchi – bu o‘zining odatiy muhitidan biror-bir belgilangan asosiy joyga, tashrif buyurayotgan mamlakatda yoki joyda ro‘yxatga olingan korxonaga ishga joylashish maqsadlaridan tashqari, har qanday asosiy maqsadni (xizmat safari, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsad) ko‘zlab, bir yildan kam bo‘lgan muddatga safarni amalga oshiruvchi sayohatchi;

sayyohlar (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar) – tashrif buyurayotgan mamlakatning jamoaviy yoki yakka tartibdagi joylashtirish vositalarida kamida bir kecha tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar;

bir kunlik tashrif buyuruvchilar (ekskursiyachilar) – tashrif buyurayotgan mamlakatning jamoaviy yoki yakka tartibdagi joylashtirish vositalarida kechasi tunab qolmaydigan tashrif buyuruvchilar;

kiruvchi turizm – O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati;

chiquvchi turizm – O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati;

turoperator – bu litsenziya asosida iste’molchilarning ommaviy va individual talabiga mo‘ljallangan turistik marshrutlarni ishlab chiqish va targ‘ib qilish, shuningdek, uni turistik agentlar va turistlarga sotish bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subekti;

turistik agentlik (Turagent) – turoperator tomonidan tashkil etilgan turlarni sotadigan tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor. Turagent turoperatoridan turlarni sotib oladi va xaridorga turistik marshrutni amalga oshiradi yoki turoperator tomonidan taqdim etilgan komissiya evaziga turist va turoperator o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

3-bob. Ma’lumotlar manbai va uning statistik hisobi

2. Turizm sohasida statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) turizm shakli “Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish to‘g‘risida hisobot”, 1kb (tur) (1kb shakliga ilova) “Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish to‘g‘risida mikrofirm va kichik korxonaning hisoboti” sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan statistika hisobotlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018– yil 3 apreldagi “O'zbekiston Respublikasining tashqi sektori statistikasi shakllantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 263-sonli qaroriga asosan har oy taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi tomonidan xorijga chiqqan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni safar maqsadlari, davlatlar, jinsi va yoshi to'g'risidagi ma'lumot.

3. Agar chet el fuqarosi (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi) hisobot davri davomida bir necha marta xorijga chiqqan bo'lsa, Personallashtirish agentligi va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari ma'lumotlarida bir yo'nalish bo'yicha davlat chegarasini bir necha marta kesib o'tgan bo'lsa, shuncha marta hisobga olinadi. Shuning uchun Uslubiy nizomda fuqarolar soni emas, balki turistik safarlar soni hisobga olinadi.

Turizm statistikasiga oid ma'lumotlar manbai mazkur Uslubiy nizomning 4-ilovasida keltirilgan.

4. Turizmning turli ko'rinishlari bilan bog'liq safarlar quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- safar maqsadi;
- safar yoki tashrifning davomiyligi;
- joylashtirish turlari.

Safar maqsadi tushunchasi, ushbu safar sayyohlik safari mezonlariga, sayohatchi esa tashrif buyuruvchi mezonlariga muvofiq kelishini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Shuningdek, safar maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar tashrif buyuruvchining iste'moli va xarajatlari xususiyatlariga xos bo'lgan modellarni aniqlashda qo'llaniladi. Statistika amaliyotida, “ushbu maqsad bo'lmagan taqdirda safar amalga oshirilmagan bo'lar edi” – deb aniqlanadigan safarning asosiy maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi.

U yoki bu tashrif buyuruvchi safarda bo'lib turib, ikkinchi darajali faoliyat turini amalga oshirishi mumkin bo'lsa ham, har bir sayyohlik safari bitta yagona asosiy maqsadga ega bo'ladi.

Sayyohlik safarlari maqsadlarining tasniflanishi mazkur Uslubiy nizomning 1-ilovasida keltirilgan.

Safar maqsadlarining quyidagi tasniflari mavjud: xizmat, ish, o'qish, qarindoshlarni yo'qlash, sayyohlik, davolanish, tijorat, tranzit va boshqalar.

Turistik safar maqsadlariga yuqoridagi safar maqsadlarining ish, tranzit, boshqa va doimiy yashash maqsadlaridan tashqari barchasi kiradi.

5. Turizm hajmi safarlar soni, shuningdek, safar davomida o'tkazilgan tunlar soni bilan ifodalanishi mumkin. Safar davomiyligi, tunab qolish bilan joylashtirish xizmatlari kabi sayyohlik xizmatlariga bo'lgan talabni baholash uchun muhim kiruvchi ma'lumot hisoblanadi. Safarning davomiyligini aniqlash biror-bir safar yoki tashrif bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni baholash uchun zarur.

6. Tashrif buyuruvchi tomonidan aytiladigan va qabul qilinadigan safarning umumiy davomiyligi, tashrif buyuriladigan joylar oralig'ida harakatlanish uchun sarflanadigan vaqtning hisobiga, tashrif buyuriladigan joylarda turish davomiyligining umumiy miqdoridan farq qilishi mumkin.

Tunab qolish bilan o'tkazilgan safarlarni o'z ichiga olgan safar davomiyligi tunlar soni bilan ifodalanadi. Tunab qolish nazarda tutilmagan safarlarni, safar davomida o'tkazilgan soatlar miqdoridan qat'i nazar bir kunlik safarlar deb qarash kerak. Tunab qolish bilan o'tkazilgan safarlar ularning davomiyligi bo'yicha guruhlanadi.

Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilarga tunab qolish uchun u yoki bu turdagi joylashtirish joyi kerak bo'ladi hamda joylashishga ketgan xarajatlar ko'pincha safar umumiy xarajatlarning nisbatan ko'p qismini tashkil etadi.

7. Qisqa muddatga joylashtirish yoki tijorat (bozor munosabatlari) asosida, ya'ni pullik xizmatlar sifatida bo'lishi, hatto, agar tashrif buyuruvchidan olinayotgan to'lov ushbu xarajatlarni qoplash uchun ta'minlab berilgan bo'lsa ham, yoki notijorat (bozor munosabatlari bo'lmagan) asosda, ya'ni, oila a'zolari, do'stlar yoki qarindoshlar tomonidan bepul yoki o'z hisobidan (mulkdorlar egallab turgan dala hovlilar) ko'rsatilgan xizmatlar sifatida bo'lishi mumkin.

Tashrif buyuruvchilar shuningdek, ochiq havoda tunab qoladigan piyoda sayohat qiluvchilar holatidagi kabi, ko'rsatiladigan har qanday turdagi joylashtirish xizmatlarini rad etishlari mumkin.

8. Statistika hisobotlari asosida, sayyohlik xizmatlari takliflari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi sayyohlik tashkilotlari va jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyatini ifodalovchi yillik ma'lumotlar shakllantiriladi, xususan:

- sayyohlik faoliyati va tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni;
- sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni va qiymati;

- sayyohlik firmalari tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni (turizm turlari va mamlakatlar guruhlar bo'yicha);
- xizmat ko'rsatilgan bir kunlik tashrif buyuruvchilar soni;
- tashrif buyuruvchilarning yashagan kishi-kunlari;
- jamoaviy joylashtirish vositalarining xona fondi (obyektlar, nomerlar (xonalar), o'rinlar (koykalar) soni);
- jamoaviy joylashtirish vositalariga joylashtirilgan shaxslar soni (kelgan mamlakatlar guruhlar, maqsadlari va safar davomiyligi bo'yicha);
- jamoaviy joylashtirish vositalarida tashrif buyuruvchilar tomonidan o'tkazilgan tunlar soni.

Statistika maqsadlarida foydalaniladigan sayyohlarni joylashtirish vositalari tasnifi va uning kichik guruhlar tavsiflari 2 va 3-ilovalarda keltirilgan.

4-bob. Turizm statistikasi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

9. Kiruvchi (chiquvchi) turistik safarlar uchun hisoblash usullari:

- turizm statistikasi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar (TSXT-2008) asosida olib boriladi;
- hisobot davrida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari sonini aniqlash uchun o'qish, qarindoshlarni yo'qlash, xizmat, tijorat, sayyohlik va davolanish maqsadida kelgan chet el fuqarolari soni qo'shiladi;

$$T_{ent} = S + V + B + C + T + H,$$

bunda,

T_{ent} – turistik maqsadlarda O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

S – o'qish maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

V – qarindoshlarni yo'qlash maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

B – xizmat safari maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

C – tijorat maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

T – sayyohlik maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni;

H – davolanish maqsadida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni.

Hisobot davrida turistik maqsadlarda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sonini aniqlash uchun o'qish, qarindoshlarni yo'qlash, xizmat, tijorat, sayyohlik va davolanish maqsadida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni qo'shiladi:

$$T_{out} = S + V + B + C + T + H,$$

bunda,

T_{out} – turistik maqsadlarda O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

S – o'qish maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

V – qarindoshlarni yo'qlash maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

B – xizmat safari maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

C – tijorat maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

T – sayyohlik maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni;

H – davolanish maqsadida O'zbekistondan chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni.

10. Joylashtirish vositalari bo'yicha to'ldirish koeffitsiyentini hisoblash usuli

Hisobot davri uchun joy (koyka)larning to'ldirish koeffitsiyenti hisobot davridagi tunab qolishlarning umumiy sonini joy/koykalar soni va yildagi kunlar sonini ko'paytmasiga bo'lib, 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

$$K = \frac{N_s}{N_b \times N_d} \times 100\%$$

bu yerda,

K – Joy (koyka)larning to'ldirish koeffitsiyenti,

N_s – hisobot davrida jami tunab qolishlar soni,

N_b – mavjud bo'lgan joy (koyka)lar jami soni,

N_d – yil kunlari soni.

11. Turizmda fizik hajm indeksi (FHI) hisoblash usuli:

Turizmda fizik hajm indeksi (FHI) ma'lum vaqt oralig'ida ma'lum bir mintaqada turistlar sonini yoki turistik xizmatlar hajmini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Formuladan foydalanib hisoblangan:

$$FHI = \frac{N_t}{N_o} \times 100\%$$

Bu yerda:

N_t - joriy davrdagi turistlar soni (yoki turistik xizmatlar hajmi);

N_o - oldingi davr uchun turistlarning bazaviy soni (yoki turistik xizmatlar hajmi).

Fizik hajm indeksi turizm faolligi dinamikasini tahlil qilish uchun muhim bo'lib, marketing kompaniyalari samaradorligini baholash, turizmdagi tendensiyalarni tahlil qilish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohasida qarorlar qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Misol: Faraz qilaylik, 2022- yilda sayyohlar soni N_t 500 000 kishini tashkil etdi va 2021- yilda turistlarning asosiy soni N_o 450 000 kishi edi.

Shunda:

$$FHI = \frac{500\,000}{450\,000} \times 100\% \approx 111,11\%$$

Bu 2022– yilda turistlar oqimi o'tgan yilga nisbatan 11,11 foizga oshganini bildiradi.

5-bob. Statistika ma'lumotlarini tarqatish

12. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, turizm statistikasiga oid ma'lumotlar shakllantirilib, quyidagi ko'rinishda shakllantiriladi:

Kelgan va ketgan fuqarolarning ma'lumotlari mamlakatlar kesimida hisobot davri bo'yicha choraklik, birinchi yarim yillik, 9 oy va yillik ko'rinishda hamda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati ma'lumotlari esa yilda bir marta taqdim etilgan statistika hisobotlari asosida tayyorlanadi.

Shuningdek Statistika dasturiga muvofiq, turizm statistikasi quyidagi ko'rinishlarda taqdim etiladi:

Statistika byulleteni:

“O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari” yillik statistika byulleteni;

Yillik statistika to'plamlari:

O'zbekiston raqamlarda;

O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;

O'zbekistonda turizm;

Ayollar va erkaklar;

Nashrlar orqali bosma shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi.

Bundan tashqari, rasmiy statistika ma'lumotlari quyidagi shakllarda tarqatiladi:

Press-relizlar;

Axborotnomalar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb saytida tahliliy materiallar.

Rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga, statistika organlari tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatish tartibiga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari asosida ham taqdim etiladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

15. Uslubiy nizom statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazishning asosiy bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda ifoda etilgan bo'lib, turizm sohasiga oid ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

16. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan hujjatlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 18.07.2019- y. O'RQ-549-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-707 11 avg. 2021- y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 03.08.2020- y. PQ-4796-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 04.03.2024- y. PQ-114-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining tashqi sektori statistikasi shakllantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 03.04. 2018- y. 263-son.
6. Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar — 2008 (International Recommendations for Tourism Statistics 2008. United Nations World Tourism Organization – UNWTO).

Turizm statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
1-ILOVA

Sayyohlik safari maqsadlarining tasnifi

Sinf	Sinf osti	Sayyohlik safar maqsadlari nomi
1.		Shaxsiy maqsadlar: Bu toifa, ishga doir va kasbiy maqsadlardan tashqari barcha maqsaddagi sayyohlik safarlarini o'z ichiga oladi.
	1.1.	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish: - bu toifa, diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, tabiat va san'at joylariga tashrif buyurish, sport yoki madaniyat tadbirlarida qatnashish, havaskorlik sporti bilan shug'ullanishni (chang'i uchish, ot minish, golf, tennis o'ynash, suv ostida suzish, piyoda sayohat qilish, baland tog'larga chiqish va sh.o.) o'z ichiga oladi; - sohilda dam olish, suzish havzalari va boshqa har qanday dam olish va ko'ngilochar joylardan foydalanish, dengiz sayohatlari, yozgi yoshlar oromgohlariga, dam olish uylariga borish, asal oyini o'tkazish, eng sara restoranlarga borish, sog'lom turmush tarzini yuritishga ixtisoslashgan muassasalarga (masalan, sog'lomlashtiruvchi mehmonxonalar) borish, fitnes bilan shug'ullanish, davolanish doirasidagi bunday mashg'ulotlarni qo'shmagan holda (u holda, uning asosiy maqsadi bo'lib "Davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari" hisoblanadi) uy xo'jaligining mulkiy ixtiyorida bo'lgan yoki ijaraga olingan dala hovliga borish va h.k..
	1.2.	Do'stlarni va qarindoshlarni ko'rgani borish: - bu toifa o'z ichiga, qarindoshlar yoki do'stlarnikiga tashrif buyurish; - to'ylarga, dafn marosimlari yoki boshqa har qanday oilaviy tadbirlarga tashrif buyurish; bemor yoki qariyalarni qisqa muddat davomida parvarishlash va boshqalar kabi faoliyat turlarini qamrab oladi.

Sinf	Sinf osti	Sayyohlik safar maqsadlari nomi
	1.3.	Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik: Bu toifaga, ish beruvchi yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to'lanadigan qisqa muddatli kurslarga qatnash, to'lov asosida o'qish, tillarni o'rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ilmiy ta'tillarni qo'shgan holda muayyan o'quv dasturlarini o'tish yoki kurslarda muayyan malakaga ega bo'lish va h.k. kiradi.
	1.4.	Davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari: Bu toifaga, kasallanishdan keyingi qo'shimcha davolanish maqsadida shifoxonalar, klinikalar, sanatoriyalar va yana umumiy spektrdagi tibbiy va ijtimoiy muassasalar xizmatidan foydalanish, dengiz va boshqa kurortlarga, shuningdek, tibbiy xizmatdan foydalanish uchun tibbiy uskuna va xizmatlarga asoslangan kosmetik jarrohlikni qo'shgan holda, tibbiy maslahatga asoslangan boshqa ixtisoslashgan muassasalarga qatnashni o'z ichiga oladi. Bu toifa faqat qisqa muddatli davolanishni o'z ichiga oladi, chunki davolash muassasasida bir yil va undan ortiq vaqt davomida yotib uzoq muddat davolanish sayyohlik sohasiga kirmaydi.
	1.5.	Din/ziyosat: Bu toifaga diniy yig'ilishlar va tadbirlarda ishtirok etish, muqaddas joylarni ziyorat qilish va h.k. kiradi.
	1.6.	Do'konlarga qatnash: Bu toifaga qayta sotish yoki kelgusida qandaydir ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun (bu holatda ishga doir va kasbiy maqsadlar o'rinli bo'ladi) tovarlar xarid qilishni istisno qilgan holda, shaxsiy iste'mol yoki sovg'a uchun iste'mol tovarlari xarid qilish va h.k. kiradi.
	1.7.	Tranzit: Bu toifaga biror-bir aniq maqsadni ko'zlamasdan, boshqa belgilangan joyga borish yo'lining davomi bo'lgan qandaydir joyda to'xtash kiradi. Tashrif buyuruvchilar toifasi qamrovi orasidan faqat huquqiy va iqtisodiy hududga kirmaydigan, hamda huquqiy va iqtisodiy hududga kirib, kechasiga qolmaydigan tashrif buyuruvchilar chiqarib tashlanadi. Tranzit yo'lovchilar orasidan qamrovga faqat hech bo'lmaganda bir kechaga qoladigan shaxslar kiritiladi.

Sinf	Sinf osti	Sayyohlik safar maqsadlari nomi
	1.8.	Boshqa maqsadlar: Bu toifaga ixtiyoriy asosda ishlash, ishga joylashish va migratsiya imkoniyatlarini o'rganish, boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa har qanday haq to'lanmaydigan vaqtinchalik faoliyat turlarini amalga oshirish va h.k. kiradi.
2.		Ishga doir va kasbiy maqsadlar: Ushbu toifaga, mustaqil ravishda band bo'lgan shaxslar va yollanma ishlovchilar faoliyati, agarda ular bilan tashrif buyurilayotgan mamlakat yoki joydagi ishlab chiqaruvchi-rezident o'rtasida aniq yoki nazarda tutilgan yollanma mehnat munosabatlari belgilari mavjud bo'lmasa, sarmoyadorlar, ishbilarmonlar va hokazolar faoliyati kiradi. Bu toifaga shuningdek, quyidagilar kiradi: - majlislar, konferensiyalar yoki kongresslar, savdo yarmarkalari va ko'rgazmalarda ishtirok etish; - ma'ruzalar o'qish, konsertlar, tomoshalar va spektakllar bilan chiqish; - norezident-ishlab chiqaruvchilar (tashrif buyurayotgan mamlakat yoki joydagi) nomidan tovarlar va xizmatlarni reklama qilish, sotib olish, sotish yoki xarid qilish; - tashrif buyurilayotgan mamlakatda uzoq muddatli safarda bo'lganlarni istisno etgan holda, diplomat, harbiy xizmatchi yoki xalqaro tashkilotlarning xodimlari sifatida chet el hukumatlari missiyalarida ishtirok etish; - nodavlat tashkilotlar missiyalarida ishtirok etish; - ilmiy-amaliy yoki fundamental tadqiqotlarda ishtirok etish; - sayyohlik sohasidagi norezident-agentliklarning (tashrif buyurilayotgan mamlakat yoki joydagi) manfaatlari uchun turistik sayohatlar dasturlarini tuzish, joylashtirish va transport xizmatlarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish, yo'lboshlovchilik yoki sayyohlik sohasidagi boshqa xodimlar sifatidagi ishlar; - professional sport tadbirlarida ishtirok etish; - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda kasbga tayyorlovchi rasmiy yoki norasmiy kurslarga qatnash; - xususiy transport vositalari (korporativ samolyot, yaxta va h.k.) ekipaji/jamoasi tarkibida ishlash.

Turizm statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
2-ILOVA

Joylashtirish vositalari tasnifi

Toifalar	Turkumlar	Guruhlar
1. Jamoaviy joylashtirish vositalari	1.1. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	1.1.1. Mehmonxona 1.1.2. Shunga o'xshash muassasalar 1.1.3. Motel 1.1.4. Pansionat (mehmonxona tipidagi) 1.1.5. Qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar
	1.2. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari	1.2.1. Sog'lomlashtirish muassasalari (sanatoriya)
		1.2.2. Yil davomida ishlovchi sanatoriya sog'lomlashtirish lageri
		1.2.3. Turistik baza
		1.2.4. Boshqa turlari.
	1.3. Jamoaviy joylashtiruvchi boshqa muassasalar	1.3.1. Dam olish uchun mo'ljallangan turar-joylar 1.3.2. Kemping maydonlari
2. Individual joylashtirish vositalari	2.1. Individual joylashtirish vositalari	2.1.1. Mehmon uylari 2.1.2. Dala hovli 2.1.3. O'tov lagerlari 2.1.4. Individual joylashtirish vositalarining boshqa turlari
3. Boshqa joylashtirish vositalari	3.1. Boshqa joylashtirish vositalari	3.1.1. Hostellar (yoshlar mehmonxonalari) 3.1.2. Yotoqxonalar

Turizm statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
3-ILOVA

Joylashtirish vositalari tasniflanishining kichik guruhlar ta'rifi

Toifalar	Turkum- lar	Guruh- lar	Joylashtirish vositalari nomi
1.			Jamoaviy joylashtirish vositalari
	1.1.		Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari: - mehmonxona va shunga o'xshash muassasalar quyidagi belgilarga ega bo'ladi: - ular soni belgilangan eng kam miqdordan ko'p bo'lgan xonalardan (nomer) iborat; - ular yagona tartib qoidaga ega: xonalarga xizmat ko'rsatish, to'shaklarni har kuni to'g'rilab qo'yish va sanuzellarni tozalashni qo'shgan holda ma'lum bir turdagi xizmatlarni yetkazib beradi; - ular yetkazib beradigan xizmatlari va jihozlariga muvofiq ravishda sinflar va toifalarga guruhlangan; - ixtisoslashtirilgan muassasalar tarkibiga kirmaydi.
		1.1.1.	Mehmonxonalar: Bu guruh mehmonxonalar, kvartira turidagi mehmonxonalar, motellar, yo'l ustidagi va sohildagi mehmonxonalar, yashash joyi bo'lgan klublar va har kuni to'shaklarni to'g'rilab qo'yish, xonalar va sanuzellarni tozalash bilan cheklanmaydigan mehmonxona xizmatlari ko'rsatuvchi shunga o'xshash muassasalarni o'z ichiga oladi.
		1.1.2.	Shunga o'xshash muassasalar: Bu guruh pansionatlar va mebel bilan jihozlangan xonalar, sayyohlar uchun yotoqxonalar hamda xonalari bo'lgan va har kuni to'shaklarni to'g'rilab qo'yish, xonani va sanuzelni tozalashni qo'shgan holda cheklangan mehmonxona xizmatlari ko'rsatadigan shunga o'xshash joylashtirish muassasalarini o'z ichiga oladi.

Toifalar	Turkum-lar	Guruh-lar	Joylashtirish vositalari nomi
		1.1.3.	Motel: Yo'l bo'yidagi kichikroq mehmonxona bo'lib, uning nomerlariga odatda ko'cha tomondan kiriladi (avtomobil to'xtash joyidan).
		1.1.4.	Pansionat: Dam olish uyi, to'liq xizmat ko'rsatuvchi o'ziga xos mehmonxona.
	1.2.		Ixtisoslashgan muassasalar: Bu turkum joylashtirish xizmatlarini yetkazib berishdan tashqari, qandaydir boshqa ixtisoslashgan vazifani bajaruvchi muassasalarni o'z ichiga oladi. Bular sog'lomlashtirish muassasalari, mehnat va dam olish oromgohlarini, jamoaviy transport vositalari va kongress-markazlarda joylash-tirishni o'z ichiga oladi.
		1.2.1.	Sog'lomlashtirish muassasalari: Bu guruh joylashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi davolash va sog'lomlashtirish muassasalarini, masalan, shifoxonalar, mineral suvli kurortlar, sanatoriyalar, tog'dagi sanatoriyalar, sog'lomlashayotganlar uchun uylar, qariyalar uylari va boshqa shunga o'xshash muassasalarni o'z ichiga oladi.
		1.2.2.	Yil davomida ishlovchi sanatoriya sog'lomlashtirish lageri: Ushbu guruhga – tashkiliy-huquqiy va mulk shakllaridan qat'i nazar, mavsumiy yoki yil davomida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy faoliyati bolalarning dam olishini ta'minlash va ularning sog'lig'ini yaxshilash bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishga qaratilgan lagerlar (shahar tashqarisidagi bolalar dam olish va sog'lom-lashtirish oromgohlari, bolalar sog'lomlashtirish markazlari, bazalari va majmualari, bolalar sog'lomlashtirish va ta'lim markazlari, ixtisoslashtirilgan (profil) oromgohlar (sport-sog'lomlashtirish va boshqa oromgohlar), bolalar uchun

Toifalar	Turkum-lar	Guruh-lar	Joylashtirish vositalari nomi
			sog'lomlashtirish va dam olish oromgohlari va boshqa tashkilotlar) hamda ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etilgan ta'til vaqtida o'quvchilarning dam olishlari va sog'lig'ini yaxshilashni tashkil qiluvchi lagerlar (tunu kun ishlovchi yoki kunduzgi) kiradi.
		1.2.3.	Turistik baza: Ushbu guruh turistlar va sayyohlar uchun turar joy, ovqatlanish, madaniy va maishiy dam olish, ko'ngil ochish va dam olish uchun mo'ljallangan majmualarni, o'ziga xos sport bazasini o'z ichiga oladi.
	1.3.		Boshqa jamoaviy joylashtirish vositalari.
		1.3.1.	Dam olish uchun mo'ljallangan turar-joylar: Bu guruh jamoaviy rahbarlik ostida bo'lgan jamoaviy xona (bino)larni, masalan, kvartira turidagi mehmonxona va turar-joy sifatida tashkil etilgan va cheklangan mehmonxona xizmatlari (har kuni to'shaklarni to'g'rilab qo'yish va turar-joyni tozalashni qo'shmagan holda) ko'rsatadigan uylar kompleksi kabilarni o'z ichiga oladi.
		1.3.2.	Kemping uchun maydonlar: Bu guruh chodirlar, avtofurgonlar, avtotirkamalar va g'ildirakli uylar uchun mo'ljallangan yopiq maydonchalardagi joylarni o'z ichiga oladi. Ushbu barcha joylar yagona tartib qoidaga ega va ayrim sayyohlik xizmatlarini ko'rsatadi (do'kon, ma'lumotlar berish, hordiq chiqarib o'z kuchini tiklash bilan bog'liq faoliyat turlari).
		1.3.3.	Boshqa jamoaviy joylashtirish vositalari.
2.			Individual joylashtirish vositalari
	2.1.		Individual joylashtirish vositalari
		2.1.1.	Mehmon uylari: Mehmon uylari xususiy uy bo'lib, uning egasi uni to'liq yoki xonalarini ijaraga beradi. Ko'pincha, uy egasining o'zi va uning oilasi ham alohida qavatda yoki uyning alohida qismida yashaydi.

Toifalar	Turkum-lar	Guruh-lar	Joylashtirish vositalari nomi
		2.1.2.	Dala hovli – mehmonlar dam olishi uchun shahar tashqarisidagi uy.
		2.1.3.	O'tov lagerlari: o'tov – turkiy ko'chmanchilarning namat bilan qoplangan ko'chma uyi.
		2.1.4.	Individual joylashtirish vositalarining boshqa turlari
3.			Boshqa joylashtirish vositalari
	3.1.		Boshqa joylashtirish vositalari
		3.1.1	Xostellar (yoshlar mehmonxonalari): O'z mehmonlarini qisqa yoki uzoq muddatli, xonada qo'shimcha qulayliklarsiz yotoq joy bilan ta'minlaydigan turar-joy tizimi.
		3.1.2.	Yotoqxonalar: Bu guruh yoshlar mehmonxonalari, sayyohlik yotoqxonalar, guruh bo'lib joylashtirish vositalari, korxona ishchilarini joylashtirish vositalari, maktab yotoqxonalar, shuningdek, yagona tartibga ega bo'lgan va aksariyat hollarda xarajatlari qoplab beriladigan shunga o'xshash joylarni o'z ichiga oladi.

Turizm statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
4-ILOVA

Turizm statistikasiga oid ma'lumotlar manbai

Turizm turlari	Ma'lumotlar manbai	Kim tomonidan taqdim etiladi
Kirish turizmi	O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni safar maqsadlari, davlatlar, jinsi va yoshi to'g'risidagi ma'lumot.	O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari
Chiqish turizmi	Xorijga chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni safar maqsadlari, davlatlar, jinsi va yoshi to'g'risidagi ma'lumot.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi
Ichki turizm	O'zbekiston Respublikasida ichki turizmning rivojlanishi alohida ko'rsatkichlari	Uy xo'jaliklari kuzatuv, aholini ro'yxatga olish kuzatuvlari ma'lumotlari
Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish	1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida hisobot",	sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar ya'ni yirik korxonalar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan statistika hisobotlari
Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish	1kb (tur) (1kb shakliga ilova) "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti"	sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar ya'ni mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan statistika hisobotlari